



**GLOBALIZATION, INDEPENDENT EDUCATION: PROBLEMS  
AND SOLUTIONS**

**Bakayev N. B. Ph.D., Professor**  
Asian International University

Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiyani modernizatsiyalash bosqichda mustaqil ta'lim konsepsiyasi ustuvor o'ta muhim ahamiyatli yo'nalishga aylangan. Davlat siyosati va oliy ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida, talabalar o'zni-o'zi boshqarish, mustaqil ta'lim olish va ijodiy fikrlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga alohida urg'u berilib, raqamli iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan to'xtovsiz rivojlanishi oliy ta'limdan nafaqat muayyan mutaxassislikka yo'naltirilgan tor doiradagi kasbiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan yetuk mutaxassislarni, ya'ni har tomonlama ,universal kompetensiyalarga ega raqobatbardosh zamon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashni talab qilmoqda.

Ma'llumki, globallashuv davrida munosib o'rin egallagan kasbiy kompetentlik bu zamonaviy mutaxassis uchun eng zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy ta'lim-tarbiyaga fazilatlarining uyg'unlashgan majmuasidir. U nazariy va amaliy bilimlar, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, texnologiyalardan foydalana olish va kasbiy muammolarga ijodiy yondashuvni o'z ichiga oladi. Mustaqil ta'lim jarayoni talabaga o'zini-o'zi rivojlantirish, mas'uliyat, tashabbuskorlik, yetakchilik kabi shaxsiy va moslashuvchan ko'nikmalarni egallash imkonini beradi. Olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, ularni tahlil qilish, real kasbiy muammolarni chuqur o'rganish orqali talabaning kasbiy tafakkurini shakllantiradi. Shu bois mustaqil ta'lim kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi asosiy poydevor va samarali pedagogik mexanizm sifatida e'tirof etiladi.

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda rivojlantirish maqsadida bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan asosiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Qarorda oliy ta'limni xalqaro standartlarga moslashtirish, sifatni oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish vazifalari belgilangan. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida mustaqil ta'limni tashkil etish orqali talaba shaxsiy rivojlanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish choralari ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 311-

sonli buyrug'i milliy oliy ta'lim tizimining me'yoriy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur buyruq asosida davlat ta'lim standartlari xalqaro talablarga moslashtirildi, kredit-modul tizimi, fanlararo integratsiya va innovatsion o'qitish usullarini joriy etish ta'minlandi.

Ta'lim samaradorligi ta'lim jarayoni ishtirokchilarining kompetentligini oshirish va ta'lim



oluvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish orqali ta'minlanadi. Bu borada rivojlangan mamlakatlarda kompetensiyaviy yondashuvga ta'lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida qaralmoqda.

Ushbu masala bo'yicha Yevropa Kengashi 1996-yilda "Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar" mavzusida Simpozium tashkil etilib, unda Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning uzluksiz ta'lim tizimi uchun dastlabki tayanch kompetensiyalar belgilangan. Keyinchalik, 2006-yilda yevropa Parlamenti amaliy tajriba va takliflar asosida a'zo davlatlarga uzluksiz ta'lim tizimida shakllantirilishi zarur bo'lgan 8 ta tayanch kompetensiyani tavsiya etgan va ular orasida kasbiy kompetensiyaga alohida urg'u berib o'tgan. Rivojlangan davlatlarning ta'lim standartlarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga oid tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakatning mazkur masalaga yondashuvi va talqini uning ta'lim sohasidagi maqsadlari, imkoniyatlari va shart-sharoitlariga bog'liq.

Xalqaro tajribaga asoslangan holda, Germaniya, Angliya, Singapur, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi mamlakatlarning ilg'or ta'lim tizimlari tahlil qilinib, O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tamoyiliga mos ravishda ta'lim mazmunini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Fanlar uzviyligini ta'minlash va samaradorlikni oshirish uchun integratsiyalashgan kompetensiyalar joriy etilgan bo'lib, mustaqil ta'lim bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish vositasi sifatida qaraladi.

Mustaqil ta'lim talaba - yoshlarning bilimni mustahkamlashi va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlashda muhim omildir. Mustaqil ta'lim nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning asosiy mezonini hisoblanadi. Shu tariqa, ta'lim jarayonining jadallashuvi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" hamda 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish va ilm fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5847-sonli Qarorida keltirilgan ustuvor yo'nalishlar mustaqil ta'lim tizimini rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunida (2020-yilgi yangi tahriri) ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olish huquqlari kafolatlangan bo'lib, bu jarayonni tashkil etish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Amaldagi qonunchilikda mustaqil ta'limni tashkil etishga oid bir qator o'ta muhim huquqiy asoslar belgilab berilgan. Jumladan, talaba - yoshlar bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirish huquqiga ega ekani qonun bilan kafolatlanadi. Akademik erkinlik tamoyili asosida esa talaba - yoshlarga individual o'quv yo'nalishlarini tanlash va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari yaratiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan bo'lib, ta'lim muassasalariga bu jarayonni baholash uchun maxsus mexanizmlar ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.

Shu o'rinda, mustaqil ta'limga oid asosiy huquqiy hujjatlarni tahlil qilib, O'zbekistonda mustaqil ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini ta'kidlash mumkin. Ushbu jarayonni tartibga soluvchi asosiy bir nechta me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ushbu hujjatlar asosida oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlarlar mustaqil ta'lim faoliyatlari tashkil etiladi hamda baholanadi.

2019-yil 8-oktabrdagi PQ-5847-sonli Prezident farmonida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish,



ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mustaqil ta'limni rag'batlantirish hamda fan va innovatsiyalar orqali uni qo'llab-quvvatlash vazifalari belgilangan. Ushbu qaror asosida mustaqil ta'lim o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etildi va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi. Xususan, elektron ta'lim platformalarning joriy etilishi, o'quv materiallarining raqamlashtirilishi mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni mamlakat taraqqiyotining navbatdagi bosqichini belgilab beruvchi fundamental dasturiy hujjatdir. Ushbu strategik hujjat O'zbekiston Respublikasining uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, "Ta'lim va fan" yo'nalishida ilgari surilgan ustuvor vazifalar doirasida shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va mustaqil ta'limshakllarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Strategiya doirasida ta'lim sifatini oshirish, kadrlar malakasini rivojlantirish va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga muhim vazifalardan biri sifatida qaralgan. Mustaqil ta'limni takomillashtirish uchun ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilishi va moslashtirilishi nazarda tutilgan. Zamonaviy texnologiyalar va elektron ta'lim vositalaridan foydalanish orqali mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Strategiyaning asosi raqamli ta'lim muhitini kengaytirish, onlayn resurslarni rivojlantirish va mustaqil ta'limga e'tiborni kuchaytirishga qaratilgan.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari mustaqil ta'lim jarayonining huquqiy asoslari xalqaro ta'lim standartlariga muvofiqlashtirilgan holda takomillashtirilmoqda. Yurtimiz O'zbekistonda mustaqil ta'limni tartibga soluvchi qonun va qarorlar milliy ta'lim tizimini rivojlantirish hamda xalqaro tajribaga moslashtirish maqsadida qabul qilinmoqda. Xususan, *Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS)* ga muvofiq, O'zbekistonda ham kredit-modul tizimi joriy qilinmoqda va ushbu tizimga bosqichma-bosqich barcha oliy ta'lim muassasalari o'tkazilmoqda. Natijada esa talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyati huquqiy asoslar bilan mustahkamlanmoqda. Ta'lim tizimida e'tibor talabalarning mustaqil ishiga hamda reyting asosidagi baholash tizimiga qaratilgan.

Dastlab kredit-soat tizimi AQShda vujudga kelgan va rivojlangan. 1869-yilda Amerika ta'lim tizimining muhim vakili, Garvard universiteti rektori Charlz Eliot "kredit soati" tushunchasini olib kirgan va 1870-1880-yillarda akademik ish hajmi kredit soatlari asosida o'lchana boshlangan. Yevropa kredit tranfer tizimi (ECTS) ERASMUS dasturining sinov loyihasi sifatida shakllangan bo'lib, 6 yil davomida Yevropaning 145 ta oliy ta'lim muassasalarida tajribadan o'tgan va o'z oldiga qo'ygan vazifasini to'laqonli bajara olgan. Bugungi kunda dunyoning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalarining deyarli 80 foizi Yevropa kredit transfer tizimidan foydalanib kelishmoqda. Shu jumladan, mamlakatimizdagi oliy ta'lim dargohlarining 90 foizi 2030 yilgacha tizimli ravishda kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan.

Mustaqil ta'limning nazariy asoslari yuqorida keltirilgan qonun va qarorlar hamda xalqaro standartlar asosida belgilangan. "Zamonaviy pedagogikada mustaqil ta'lim talaba - yoshlarning qiziqish va ehtiyojlariga asoslangan, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan individuallashtirilgan o'zini rivojlantirish jarayonidir". Uning nazariy asoslari konstruktivizm, refleksiv pedagogika va faoliyatli yondashuvdan iborat. Mustaqil ta'lim talaba - yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi hamda nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan.

Kasbiy kompetentlik nafaqat ma'lum bir sohadagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish, balki ularni samarali qo'llay olish qobiliyati hamdir. Mustaqil ta'lim ushbu kompetensiyalarni



shakllantirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, kasbiy kompetentlikning rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosadan hosila shuki, mustaqil ta'lim oliy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, talaba - yoshlarning chuqur bilim egallashi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi va kasbiy malakasini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Uning samaradorligi o'qitish metodlari, resurslar va talaba - yoshlarning o'zlashtirish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Mustaqil ta'lim kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo'lib, uning samaradorligi innovatsion texnologiyalar, mustaqil faoliyatni rag'batlantirish va amaliyot bilan uyg'unlashuvga bog'liq. Bu nafaqat ta'lim jarayonini tezlashtiradi, balki talabaning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlashga yordam beradi.

Mustaqil ta'limning konseptual asoslari shaxsning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, konstruktiv, refleksiv va faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarga asoslanadi. Bu yondashuvlar talabaga bilimni tajriba orqali egallash, amaliy qo'llash va real muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Asosiy jihatlardan biri olingan bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash orqali talabaning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Aynan shu omil zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning dolzarbligini oshiradi.

Shu munosabat bilan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mustaqil ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli resurslar mustaqil ta'limni qulay va samarali qilish bilan birga, talabalarning o'quv imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, qayta aloqa mexanizmlari, doimiy baholash tizimlari va interfaol usullardan faydalanish talabalarga o'z yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim samaradorligini oshirish uchun mustaqil ta'limni turli xil o'qitish usullari bilan birlashtirish muhimdir. Innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalar mustaqil ta'limni boyitib, nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Natijada ta'lim oluvchilar o'z bilimlarini chuqur o'zlashtirib, amaliy faoliyatda qo'llay oladilar.

Mustaqil ta'lim kasbiy kompetensiyalar bilan birga, mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Bu esa ta'lim jarayonining faolligi va samaradorligini oshiradi. Natijada mehnat bozorida yangicha fikrlaydigan, ijodiy yondashadigan raqobatbardosh mutaxassislar shakllanadi. Kelgusida mustaqil ta'lim modelini yanada takomillashtirish, uni zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon talabaning intellektual va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi hamda kelajakdagi muvaffaqiyat ehtimolini oshiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 5, 2018 No. PQ- 3775. On improving the quality of education in higher educational institutions and ensuring their active participation in the comprehensive reforms being implemented in the country. // National database of legislative documents, 06.06.2018, No. 07/18/3775/1441.
2. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 31, 2020



No. 824. On measures to improve the system related to the organization of the educational process in higher educational institutions.

3. Begmatov K., Toshmukhamedova S. Theoretical Foundations of the Formation of Professional Competencies of Future Foreign Language Teachers //education and research in the era of digital transformation. - 2025. - T. 1. – no. 1. – B. 2266-2269.

Jonassen, D. H.. Designing constructivist learning environments. In C. M. Reigeluth (Ed.), Instructional design theories and models: A new paradigm of instructional theory (Vol. II, pp. 215–239). Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.1999.

4. Bakaevich, B. N. . (2022). DISTANTSIONNOE OBUCHENIE KAK SREDSTVO OBMENA UChEBNOY INFORMATSIEY NA RASSTOYaNII. Eurasian journal of social science, philosophy and culture, 2(2), 278–282. izvlecheno ot <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/829>

5. Bakaev Najmiddin Bakaevich, Rakhmanov Sukhrob Bakhriddinovich. (2022). FUNDAMENTALNYE ASPEKTY OBUChENIya INOSTRANNYM YAZYKAM V SOVREMENNYX REALIYax. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6585277>

6. Bakaev, N. (2023). PREPODAVANIE INOSTRANNOY LEKSIKI STUDENTAM VUZOV KAK VTOROGO YAZYKA. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 3(2 Part 2), 91–99. izvlecheno ot <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/10662>

Jonassen, D. H.. Designing constructivist learning environments. In C. M. Reigeluth (Ed.), Instructional design theories and models: A new paradigm of instructional theory (Vol. II, pp. 215–239). Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.1999.